

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
<b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....	50
<b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	56
<b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....	64
<b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	71
<b>Pulatov Abdullo</b>	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
<b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....	80
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....	92
<b>Atamatov Abdualil Salomovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....	97
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....	103
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	107
<b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY .....	112
<b>Kamilova Nargiza</b>	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	115
<b>Sottarov Abdulvali Umirqulovich</b>	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	120
<b>Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI .....	130
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .....	140
<b>Yangiboev Rustam Berdiyrovich</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	152
<b>Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	163
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b>	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
<b>Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI .....	174
<b>Safarova Muxabbat Radjabovna</b>	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI .....	178
<b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI .....	186
<b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH .....	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILYI IMKONIYATLARI .....	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI .....	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR .....	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI .....	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI .....	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH .....	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI .....	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxiidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI .....	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
<b>Mansurov Obid Zaynidinovich</b>	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI .....	296
<b>Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
<b>Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
<b>Norova Nozima Nabiyeвна</b>	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BRENД STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
<b>Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich</b>	
HUDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
<b>Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	325
<b>Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич</b>	
HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.....	331
<b>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</b>	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI .....	339
<b>Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li</b>	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
<b>Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli</b>	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
<b>Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беговот Шералиевич</b>	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
<b>Umarova Durdona Abdumannabovna</b>	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
<b>Aminova Naima Umar qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
<b>Davlatov Ulug'bek Baxodirovich</b>	
HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI .....	370
<b>Avliyaqulov Xudoyberdi</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI MOTIVATSİYALASHGA OID TEXNOLOGIYALAR.....	380
<b>Bekmurodov Navruz Ergashevich</b>	



FORECASTING AND PROMISING DIRECTIONS OF INNOVATIVE INDUSTRIAL AND INVESTMENT DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION.....	393
<b>Sattorov Shohruh</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПЫТАТЕЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ НА ОСНОВЕ РАСШИРЕННОЙ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ С ВЕСОВЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ.....	400
<b>Загидуллина Карина Рафаиловна</b>	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	405
<b>Viktoriya Kan</b>	
HUDUDLARDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH.....	410
<b>Nizomov Maxmud Minvarovich</b>	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ SWOT-АНАЛИЗА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ.....	414
<b>Махмудов Суннатжон Абдужаббор ўғли</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUVI STRATEGIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	419
<b>Ubaydullayev Muhammadjon Abdusamad o'g'li</b>	
TRANSFORMATSION YETAKCHILIK VA XODIMLARNING INNOVATSION XULQ-ATVORI: KORPORATIV TASHKILOTLARDA EMPIRIK TADQIQOT.....	423
<b>Alimov Bobirjon</b>	
EKSPORTBOP QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI QIYMAT ZANJIRIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	432
<b>Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li, G.M.Abdulxayeva</b>	
ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIVAVIY NAZORAT MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	437
<b>Iskandarova Munisa Hasan qizi</b>	
MAMLAKAT INNOVATSION FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI.....	441
<b>Azimov Bobir Fattohevich</b>	
O'ZBEKISTON MAHALLIY BYUDJETLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING DAROMAD MANBALARINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI.....	445
<b>Safarmurodova Marjona To'raqulovna</b>	
DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSALARIDA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK SHAROITIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI.....	450
<b>Adizov Bobir Baxtiyorovich</b>	
SIRKULAR IQTISODIYOT SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	457
<b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	462
<b>Kunnazarova Orazhan</b>	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIK MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	468
<b>Asadova Shaxzoda Zabikhillo qizi</b>	
MINTAQA IMIJI VA INVESTITSIYA OQIMLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	472
<b>Ibodullayev Dilshod Ibragimovich</b>	
INSON KAPITALI BARQAROR RIVOJLANISH MANBAI SIFATIDA.....	480
<b>Alimova Oydin Baxtiyorovna</b>	



STUDYING THE FACTORS INFLUENCING INNOVATIVE APPROACHES TO REGIONAL EXPORT EFFICIENCY .....	486
<b>Qurbanov Feruz Baxramovich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEKANIZMLARI .....	491
<b>Xakimov Akbar Anvarovich</b>	
XORIJIY DAVLATLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB QUVVATLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH XUSUSIYATLARI .....	496
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Atabayeva Mexribon Atabayevna</b>	
ENHANCING LIQUIDITY MANAGEMENT EFFICIENCY IN JOINT-STOCK COMPANIES USING THE GEOMETRIC BROWNIAN MOTION (GBM) MODEL.....	503
<b>Kurbonov Xayrilla</b>	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	508
<b>Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна</b>	
YOSHLAR BANDLIGI VA JINOYATCHILIK O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI TAHLIL QILISH (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	514
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ .....	520
<b>Зарекеев Ажинияз Абатович</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	527
<b>Некова Фатима Борисовна</b>	
DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINI MODERNIZATSIYA QILISH VA LOYIHALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	533
<b>Kenjaev Ikrom Ergashboevich</b>	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARNING XALQARO AHAMIYATI.....	536
<b>Siddikov Anvarbek Mamasoliyevich</b>	
“SANOAT 5.0 VA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI” .....	540
<b>Lutpidinov Shuxrat Zakirdjanovich</b>	
REINVENTING MANAGEMENT SYSTEMS TO DRIVE EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	545
<b>Kodirov Bekzod Khomidjonovich</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYAVIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SHAKLLARI.....	549
<b>Primova Dilafuz To'liqinovna</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATINING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	556
<b>Shoyimov Adiz Sadredinovich</b>	
ISHLAB CHIQARISH KLASTERLARINING HUDUDIY INNOVATSION RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	564
<b>Turaeva Nargiza Rustamovna</b>	
SAMARQAND VILOYATIDAGI HUDUDIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RESURS SALOHİYATINI INTEGRATSİYALASHGAN BAHOLASH METODLARI TAHLILI.....	570
<b>Meliboyev Ibrohim</b>	
VIDEO-ANALITIKA ASOSIDA YONG'IN XAVFSIZLIK TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI .....	575
<b>Shermuhhammad Mo'minov, Tojimirzayeva Xayrixon Abdushukur qizi</b>	



DEVELOPMENT OF «GREEN» AGRICULTURAL SERVICES IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN .....	580
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING HUDUDIY IXTISOSLASHUV DARAJASI .....	586
<b>Tohirov Jahongir Muzaffar o'g'li</b>	
ELEKTR TA'MINOTIDAGI UZILISHLAR TUFAYLI YUZAGA KELADIGAN BEVOSITA VA BILVOSITA IQTISODIY YO'QOTISHLARNI HISOBLASH METODOLOGIYASI.....	593
<b>Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	598
<b>Matrasulov Baxodir Erbutayevich</b>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ 3.0: ПЕРЕХОД К ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМ НАЛОГОВЫМ СИСТЕМАМ В УЗБЕКИСТАНЕ И СТРАНАХ СНГ .....	604
<b>Дамир Рустамович Абдулов</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIGA HUDUDIY SALOHİYAT TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA MAHALLIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINING INTEGRATSIYALASHGAN TAHLILI.....	609
<b>Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich</b>	
AVTONOM ROBOTLASHGAN TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN HARAКATNI QAYD ETISH MA'LUMOTLARIGA ASOSLANGAN RAQAMLI EGIZAK PLATFORMASI .....	614
<b>Fazluddin Xusnuddinov Zuxruddin o'g'li, Jamshid Inoyatxodjayev Shuxratullayevich, Jasurxo'ja Xolxo'jayev Muxtor o'g'li</b>	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING O'RNI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA.....	620
<b>Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich</b>	



## HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING O'RNI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA

**Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich**

University of Business and Science

“Yashil iqtisodiyot” kafedrası dotsenti (PhD)

ORCID:0009-0004-0136-4524

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining o'rni Namangan viloyati misolida tahlil qilingan hamda ularni imtiyozlar orqali rag'batlantirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot davomida kichik biznes subyektlarining hudud iqtisodiyotidagi mavqei chuqur tahlil qilinib, ularning aholi bandligini ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kichik biznesning investitsion imkoniyatlarini kengaytirishda soliq tizimining ta'siri baholangan. Tadqiqot Namangan viloyatining tumanlari va Namangan shahri bo'yicha statistik hisobotlar asosida amalga oshirilib, kichik biznes samaradorligi hamda ularni soliq mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, soliq imtiyozlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, tadbirkorlikni rag'batlantirish, bandlik.

**Abstract.** This article analyzes the role of private entrepreneurship and small business entities in the socio-economic development of the region, using Namangan Region as a case study, and examines issues related to their stimulation through incentives. The study thoroughly investigates the position of small business entities in the regional economy and highlights their importance in ensuring employment. It also assesses the impact of the tax system on expanding the investment opportunities of small businesses. The research is based on statistical reports from the districts of Namangan Region and the city of Namangan, analyzing the efficiency of small businesses and issues related to their support through tax mechanisms.

**Keywords:** small business, tax incentives, socio-economic development, regional economy, entrepreneurship stimulation, employment.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль частного предпринимательства и субъектов малого бизнеса в социально-экономическом развитии региона на примере Наманганская область, а также рассматриваются вопросы их стимулирования посредством льгот. В ходе исследования подробно изучается место субъектов малого бизнеса в экономике региона и освещается их значение в обеспечении занятости населения. Также оценивается влияние налоговой системы на расширение инвестиционных возможностей малого бизнеса. Исследование проведено на основе статистических отчетов по районам Наманганская область и городу Наманган, в результате чего проанализированы эффективность малого бизнеса и вопросы его поддержки посредством налоговых механизмов.

**Ключевые слова:** малый бизнес, налоговые льготы, социально-экономическое развитие, региональная экономика, стимулирование предпринимательства, занятость.



## KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning eng muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. World Bank ta'kidlaganidek, kichik biznes subyektlari yalpi ichki mahsulotning (YaIM) sezilarli qismini tashkil etadi hamda aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [1].

O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. A. Vahobov va A. Jurayev ta'kidlaganidek, soliq siyosati kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Soliq yukining kamaytirilishi investitsiya imkoniyatlarini kengaytiradi hamda yashirin iqtisodiyot ko'lamining qisqarishiga xizmat qiladi [2]. Eng muhimi, soliq imtiyozlari tadbirkorlik faolligini rag'batlantirib, mintaqaviy biznes muhitining umumiy yaxshilanishiga hissa qo'shadi.

Namangan viloyati O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida o'zining boy resurs bazasi, qulay tabiiy va iqtisodiy sharoitlari hamda strategik jihatdan muhim geografik joylashuvi tufayli alohida o'rin egallaydi. Ushbu afzalliklar tadbirkorlik faoliyatini, ayniqsa kichik biznesni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Kichik biznes esa mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, bandlik imkoniyatlarini kengaytirish va uy xo'jaliklari daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni ijobiy o'sish dinamikasini namoyon etib, aholining xususiy tashabbus, o'zini o'zi band qilish va mahalliy ishlab chiqarishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini aks ettirmoqda. Shu bilan birga, biznes subyektlarining miqdoriy o'sishi ularning sifat jihatdan rivojlanishini avtomatik ravishda kafolatlamaydi, chunki ularning ko'pchiligi hali ham ishlab chiqarish, moliyaviy va bozor salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiluvchi qator muammolarga duch kelmoqda.

Mintaqaviy rivojlanishning hozirgi bosqichida eng dolzarb muammolardan biri chekka va nisbatan kam rivojlangan hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligidir. Yirik shahar va savdo markazlaridan uzoqda joylashgan korxonalar ko'pincha infratuzilmaning cheklanganligi, logistikaning sustligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining pastligi, tor iste'mol bozorlari hamda malakali kadrlar yetishmasligi kabi qo'shimcha qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday sharoitda soliq siyosati faqat fiskal vosita bo'lib qolmasdan, balki tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish, biznes barqarorligini oshirish va hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim tartibga soluvchi mexanizmga aylanadi. Shu sababli chekka hududlardagi tadbirkorlar uchun maqsadli soliq imtiyozlarini joriy etish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi Namangan viloyatida kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy rolini chuqurroq baholash hamda uning mintaqaviy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini yanada moslashuvchan va rag'batlantiruvchi soliq tizimi orqali kuchaytirish yo'llarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Kichik biznes nafaqat ish o'rinlari yaratish va daromad shakllantirish manbai, balki mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh muhitni rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqarish tizimlarini mustahkamlashning ham muhim omilidir. Shu nuqtayi nazardan, uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini kompleks tahlil qilish tadbirkorlik faoliyatining turmush darajasini yaxshilash va barqaror hududiy rivojlanishni ta'minlashdagi haqiqiy ahamiyatini aniqroq tushunish imkonini beradi.

Shunga ko'ra, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Namangan viloyatida kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini o'rganish hamda ushbu subyektlarni soliqqa tortish mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning amaliy yo'nalishlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda soliq imtiyozlarining tadbirkorlik tashabbusini rag'batlantirish, chekka hududlarda biznes faolligini kengaytirish va muvozanatli hududiy o'sish uchun qulay sharoitlar yaratishdagi roli alohida e'tiborga olinadi. Ushbu yondashuv orqali tadqiqot kichik biznesni qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish va uning mintaqaviy iqtisodiyotdagi uzoq muddatli rolini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishga hissa qo'shishni maqsad qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Joseph Schumpeter kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini keng tahlil qilgan. Unga ko'ra, innovatsiyalar bilan qo'llab-quvvatlangan tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi [3].

Zamonaviy tadqiqotchilar — Thorsten Beck va Asli Demirgüç-Kunt esa kichik korxonalar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim segment ekanini ta'kidlaydilar. Biroq ular ko'pincha jiddiy fiskal va moliyaviy cheklovlarga duch kelishini ham qayd etadilar [4].

Q. Abdurahmonov (2020) O'zbekistonda kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini tadqiq etgan. Unga ko'ra, kichik biznesning kengayishi aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi hamda aholining moliyaviy farovonligini oshiradi [5].

Kichik biznesni fiskal tizim orqali rag'batlantirish masalasiga kelsak, A. Vahobov ta'kidlashicha, soliq imtiyozlari tadbirkorlar uchun investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi [6]. Bundan tashqari, OECD hisobotlariga ko'ra, soliq stavkalarini shunchaki pasaytirishdan ko'ra, soliq tizimini soddalashtirish iqtisodiyotda kichik biznes subyektlari o'rtasidagi raqobatni kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi [7].

Mazkur qarashlar hududlarda, jumladan Namangan viloyatidagi logistika muammolarini kamaytirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashda soliq imtiyozlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Namangan shahri va Namangan viloyatining 11 ta tumani hamda ularda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari tadqiqot obyekti sifatida belgilandi. Tahlilni amalga oshirish uchun so'nggi yillardagi statistik ma'lumotlar jamlandi. Tadqiqot doirasida kichik biznes bilan shug'ullanuvchi aholi soni, yaratilgan yangi ish o'rinlari hajmi hamda hududda yig'ilgan jami soliq tushumlari aniqlandi.

Tadqiqot maqsadlariga erishishda quyidagi manbalardan foydalanildi: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari, Namangan viloyati soliq boshqarmasi hisobotlari hamda soliq imtiyozlariga oid normativ-huquqiy hujjatlar.

Shuningdek, tadqiqotda statistik tahlil va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Statistik tahlil usuli Namangan shahri va viloyatning 11 ta tumanida kichik biznes subyektlari soni hamda yaratilgan ish o'rinlarini aniqlash uchun ishlatildi. Qiyosiy tahlil usuli esa hududlardagi tadbirkorlik subyektlari soni va ularga berilgan soliq imtiyozlari darajasini o'zaro taqqoslash uchun qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR



2024–2025-yillar uchun hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ko'ra, kichik biznes subyektlariga berilgan soliq imtiyozlari ularning o'sishi va umumiy faoliyat samaradorligiga aniq ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Mavjud ma'lumotlar ushbu imtiyozlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatining kengayishini qo'llab-quvvatlaganini, balki hududiy iqtisodiy barqarorlikni ham mustahkamlashga hissa qo'shganini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, soliq siyosati faqat fiskal tartibga solish mexanizmi bo'lib qolmay, balki hududiy biznesni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi, ishlab chiqarish quvvatini oshiruvchi hamda hududdagi investitsiya muhitini yaxshilovchi muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

2025-yil oxiriga kelib, kichik biznes hududiy iqtisodiyotning eng ta'sirchan tarmoqlaridan biriga aylanib, yalpi hududiy mahsulotning 70,1 foizini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich kichik tadbirkorlikning hududiy iqtisodiy ishlab chiqarishni shakllantirishdagi markaziy o'rnini ko'rsatadi hamda uning barqaror hududiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Mazkur sektorning YaHMga qo'shayotgan ortib borayotgan hissasi soliq imtiyozlarini o'z ichiga olgan qo'llab-quvvatlovchi fiskal choralar tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay sharoitlar yaratganini, natijada tadbirkorlar o'z faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarishni oshirish hamda hududiy bozor tizimida yanada faol ishtirok etish imkoniga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Iqtisodchilar A. Vahobov va A. Jurayev tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar ushbu talqinni yanada qo'llab-quvvatlaydi. Ular tadbirkorlarning investitsion salohiyatini oshiruvchi asosiy omillardan biri soliq tizimini soddalashtirish ekanini ta'kidlaydilar. Mazkur fikr tadqiqot davomida kuzatilgan amaliy natijalarda ham o'z aksini topgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari faolroq joriy etilgan hududlarda investitsiya hajmi sezilarli darajada oshgan. Bunga aniq misol sifatida Chust tumanini keltirish mumkin, bu yerda o'sish darajasi 2024-yilga nisbatan 14,2 foizni tashkil etgan. Ushbu dinamika soliq imtiyozlari tadbirkorlik ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatishi va tuman darajasida moliyaviy faollikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kichik biznesning roli, ayniqsa, bandlik sohasida juda muhimdir. Q. Abdurahmonov ta'kidlaganidek, kichik tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlashda asosiy vazifani bajaradi. Ushbu tahlil natijalari mazkur fikrni to'liq tasdiqlaydi. Tadqiqotda foydalanilgan 2025-yil ko'rsatkichlariga ko'ra, umumiy bandlikning 82,0 foizi kichik biznes sektori hissasiga to'g'ri kelgan. Bunday yuqori ulush kichik korxonalar iqtisodiyotning oddiy qo'shimcha elementi emas, balki hududda mehnat bozorini qamrab olishning asosiy tayanchi ekanini ko'rsatadi. Shu sababli ularning rivojlanishi bevosita ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uy xo'jaliklari daromadlarini shakllantirishni qo'llab-quvvatlaydi, ishsizlik xavfini kamaytiradi hamda umumiy turmush darajasini yaxshilaydi.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan statistik tahlil tadbirkorlik faoliyatining ko'lamini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini berdi. Hududda hozirda 21,6 mingta kichik biznes subyekti faoliyat yuritayotgani aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich hudud iqtisodiyoti bo'ylab tadbirkorlik tuzilmalarining keng tarqalganligini tasdiqlaydi hamda ularning ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishdagi muhim rolini ko'rsatadi (1-rasm).



Manba: Namangan viloyat statistika boshqarmasi

1-rasm. Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

Taqdim etilgan statistik ma'lumotlar iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining tuzilmasi va ularning o'sish dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi. Umumiy natijalarga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida sezilarli tafovut mavjud bo'lib, ayrim sohalarda yuqori konsentratsiya, boshqalarida esa nisbatan past rivojlanish darajasi kuzatiladi.

Tarmoqlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich savdo sohasiga to'g'ri kelib, 8 848 birlikni tashkil etadi. Bu savdo va xizmatlar sektori iqtisodiyotning asosiy drayveri ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanoat sohasi ham 4 165 birlik bilan muhim o'rin egallab, ishlab chiqarish sektorining iqtisodiy faolligidagi sezilarli ulushini ifodalaydi. Boshqa faoliyat turlari (2 438 birlik) va qishloq xo'jaligi sohasi (1 628 birlik) nisbatan o'rta darajadagi ulushga ega bo'lib, iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyalashganligini bildiradi.

Eng past ko'rsatkichlar esa axborot va aloqa (338 birlik) hamda sog'liqni saqlash (651 birlik) sohasida kuzatilgan bo'lib, bu tarmoqlarda iqtisodiy faollik hali yetarli darajada rivojlanmaganini anglatadi.

O'sish sur'atlari tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotda eng yuqori dinamik o'sish qurilish (107,2 foiz), sanoat (106,9 foiz) va axborot texnologiyalari (105,3 foiz) tarmoqlarida qayd etilgan. Ushbu holat investitsiya faolligi ortib borayotganini hamda iqtisodiyotning ishlab chiqarish va innovatsion yo'nalishlarga bosqichma-bosqich o'tayotganini ko'rsatadi.

Biroq ayrim tarmoqlarda nisbatan sekinroq o'sish sur'atlari kuzatiladi. Xususan, sog'liqni saqlash (94,6 foiz), savdo (97,9 foiz), tashish va saqlash (98,7 foiz) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari (98,7 foiz) sohasida o'sish sur'atlari 100 foizdan past bo'lib, bu tarmoqlarda qisqa muddatli sekinlashuv yoki talab tarkibidagi o'zgarishlar mavjudligini anglatadi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi (103,9 foiz) va boshqa xizmat turlari (100,5 foiz) nisbatan barqaror hamda ijobiy o'sish dinamikasini namoyon etgan.

Bundan tashqari, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes yalpi hududiy mahsulotning 67,3 foizini hamda sanoat ishlab chiqarishining 43,8 foizini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur sektor nafaqat savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga, balki hududning sanoat tuzilmasiga ham chuqur integratsiyalashganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, u iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashga va ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlashga sezilarli hissa qo'shadi.

Kichik biznesga berilayotgan soliq imtiyozlarining ko'lami va samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida tadqiqot jarayonida Namangan viloyati soliq boshqarmasining rasmiy hisobotlaridan foydalanildi. 2025-yil hisobotlariga ko'ra, tadbirkorlarga taqdim etilgan soliq imtiyozlarining umumiy qiymati 1,2 trillion

so'mni tashkil etgan. Bu sezilarli hajmdagi qo'llab-quvvatlash bo'lib, fiskal siyosat tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishda faol qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Imtiyozlar ko'lami davlatning kichik biznesni hududiy rivojlanishning strategik tarkibiy qismi sifatida tan olishini va biznes imkoniyatlarini kengaytirish, faoliyatni legallashtirish hamda mahalliy korxonalarining uzoq muddatli barqarorligini oshirish maqsadida soliq yukini kamaytirishga tayyor ekanini anglatadi.

Kichik biznes rivojlanishining bandlik jihati ham batafsil o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes sektorida 425,6 ming kishi band ekani aniqlandi. Bu ko'rsatkich hududdagi umumiy band aholining 79,8 foizini tashkil etib, kichik tadbirkorlikning ustun ijtimoiy va iqtisodiy rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu natija mazkur sektor rivojlanishining faqat biznes samaradorligi bilan cheklanib qolmasdan, balki mehnat bozori barqarorligi, ijtimoiy farovonlik, daromadlarning taqsimlanishi hamda hududiy rivojlanish jarayonlarining umumiy barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari hududda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali vositasiga aylangan. Ularning ta'siri tadbirkorlik faoliyatining kengayishida, ayrim tumanlarda investitsiyalarning o'sishida, kichik biznesning hududiy ishlab chiqarishdagi ulushining ortishida hamda bandlikka qo'shayotgan katta hissasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu sababli soliq imtiyozlarini kichik tadbirkorlikni mustahkamlash va hududiy darajada muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida ko'rish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznesning hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni hamda uni soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga bag'ishlangan ushbu tadqiqot asosida bir qator muhim xulosalar chiqarish mumkin. Avvalo, Namangan viloyatida kichik biznes hududiy iqtisodiyotning asosiy tayanch ustuniga aylanib, iqtisodiy faoliyat tuzilmasida yetakchi mavqega ega bo'lib bormoqda. Bu holat kichik biznes subyektlari yalpi hududiy mahsulotning 67,3 foizini yaratishi bilan yaqqol tasdiqlanadi. Mazkur ko'rsatkich nafaqat ularning miqdoriy ko'lamini, balki hududiy mahsulot shakllanishi, daromad yaratish va mahalliy bozor rivojlanishidagi hal qiluvchi hissasini ham ko'rsatadi. Bunday natija Namangan viloyati iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida kichik biznesning barqarorligi, mahsuldorligi va moslashuvchanligiga tobora ko'proq tayanayotganini anglatadi.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, soliq imtiyozlarini soddalashtirish va amaliy jihatdan kengaytirish Namangan viloyatida mazkur sektorni mustahkamlashdagi asosiy omillardan biriga aylangan. Soliq yukining yanada moslashuvchan va qo'llab-quvvatlovchi tus olishi natijasida kichik biznes subyektlari ishlab chiqarishni kengaytirish, faoliyatni yangilash va investitsiya jarayonlariga ko'proq resurs yo'naltirish imkoniga ega bo'ldi. Ushbu sharoitda kichik biznes ishlab chiqarish hajmi 12,4 trillion so'mga yetgan bo'lib, bu soliq asosidagi qo'llab-quvvatlash choralarining sezilarli iqtisodiy samarasini ifodalaydi. Bu o'sish soliq imtiyozlari nafaqat rasmiy yengillik, balki ishlab chiqarishni rag'batlantirish, biznes faolligini oshirish va viloyatning ishlab chiqarish bazasini mustahkamlashga qodir samarali iqtisodiy vosita ekanini ko'rsatadi.

Amalga oshirilgan siyosatning muhim jihatlaridan biri shundaki, soliq imtiyozlari Namangan viloyatining nafaqat markaziy va nisbatan rivojlangan hududlarida, balki chekka tumanlarida ham joriy etilgan. Bu hududiy rivojlanishning muvozanatli ta'minlanishi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega, chunki chekka tumanlar infratuzilma, logistika va moliyaviy resurslar bo'yicha muayyan cheklovlarga ega. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuv ijobiy natija berganini ko'rsatadi. Xususan, Chust tumani, Kosonsoy tumani va To'raqo'rg'on tumanida iqtisodiy faollik va sanoat rivojlanishida sezilarli o'sish tendensiyalari kuzatilgan.

Bu jarayon mazkur tumanlarda kapital aylanish tezligining oshishiga ham xizmat qilgan. Kapitalning tez aylanishi korxonalarining resurslarni faol qayta investitsiya qilishi, ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashi va bozor imkoniyatlariga tezkor javob berish imkoniyatini oshiradi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan bu biznes barqarorligini mustahkamlaydi, samaradorlikni oshiradi va yanada dinamik hududiy iqtisodiy muhit shakllanishiga yordam beradi. Shu sababli soliq imtiyozlarining samarasi faqat moliyaviy yengillik bilan emas, balki kapital harakati, ishlab chiqarish intensivligi va investitsion faollikka ta'siri bilan ham baholanishi lozim.

Iqtisodiy roldan tashqari, kichik biznes Namangan viloyatida bandlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy mexanizmi ekanini ham tasdiqladi. Tadqiqot natijalari viloyatda umumiy bandlikning 79,8 foizi kichik biznes sektorida jamlanganini ko'rsatadi. Bu juda muhim ko'rsatkich bo'lib, kichik tadbirkorlik mehnat resurslarini qamrab olish, uy xo'jaliklari daromadlarini shakllantirish va ishsizlik bosimini kamaytirishning asosiy ijtimoiy funksiyasini bajarishini anglatadi. Shu ma'noda, kichik biznesning rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish va savdoga, balki aholining turmush darajasi, mahalliy jamoalar barqarorligi va viloyatning umumiy ijtimoiy muvozanatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kichik biznes bugungi kunda Namangan viloyatining ham iqtisodiy poydevori, ham ijtimoiy tayanchi ekanini ko'rsatadi. Uning yalpi hududiy mahsulotdagi yuqori ulushi, ishlab



chiqarish o'lishiga qo'shayotgan hissasi, chekka hududlarda kengayib borayotgan roli hamda bandlikdagi ustun mavqei uning viloyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishidagi eng muhim sektor ekanini tasdiqlaydi. Shunga ko'ra, soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlash siyosati Namangan viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirishni chuqurlashtirish, hududiy tenglikni ta'minlash, sanoat faolligini kuchaytirish va ijtimoiy barqarorlikni saqlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. A. V. Vahobov (2021). Reform of the Financial and Tax System. Tashkent.
2. A. Vahobov, & A. Jo'rayev (2024). Taxes and Taxation. Tashkent: "Iqtisod-Moliya".
3. Joseph A. Schumpeter (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
4. Thorsten Beck, & Asli Demirgüç-Kunt (2006). "Access to Finance as a Growth Constraint". Journal of Banking & Finance.
5. K. K. Abdurahmonov (2020). Labour Economics: Theory and Practice.
6. A. Vahobov, & A. Jo'rayev (2021). Taxes and Taxation. Tashkent: "Sharq".
7. OECD (2023). Taxation of SME in Emerging Economies. OECD Publishing.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)